

O'ZBEK TILINING LUG'AT TARKIBI.

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti boshlang'ich ta'lim
yo'nalishi 1-kurs 1-24-guruh talabalari*

Usmonova Yulduz

Salomova Risolat

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining lug'at tarkibining nazariy va amaliy jihatlarini, uning asosiy tarkibiy qismlari, tilning leksik boyligi va uning o'zgaruvchan tabiati ko'rib chiqiladi. Lug'at tarkibining leksik birliklari, ularning semantik va grammatik o'ziga xosliklari, jumladan, lug'at boyligini saqlash va rivojlantirishga oid zamonaviy tadqiqotlar ko'rib chiqiladi. Maqolada o'zbek tilining lug'at tarkibining tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy holati ham tahlil qilinib, milliy til siyosatida lug'atshunoslikning o'rni ko'rsatib beriladi.

Абстрактный: В статье анализируются теоретические и практические аспекты словарного состава узбекского языка, его основные компоненты, лексическое богатство языка и его изменяющийся характер. Рассматриваются лексические единицы структуры словаря, их семантическая и грамматическая характеристика, а также современные исследования по сохранению и развитию словарного богатства. В статье также анализируется историческое развитие и современное состояние словарного состава узбекского языка, показана роль лексикографии в национальной языковой политике.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of the vocabulary of the Uzbek language, its main components, the lexical richness of the language and its changing nature. The lexical units of the vocabulary, their semantic and grammatical features, as well as modern research on the preservation and development of vocabulary are considered. The article also analyzes the historical development and modern state of the vocabulary of the Uzbek language, and shows the role of lexicology in

Kalit soʻzlar: Oʻzbek tili, lugʻat tarkibi, leksika, soʻz boyligi, semantika, soʻz turkumlari, tilshunoslik, soʻz birikmalari

Kirish

Til – odamzodning eng kerakli muloqot manbai boʻlib, uning muhim qismi hisoblangan lugʻat tarkibi tildagi soʻzlarning umumiy jamlanmasini anglatadi. Oʻzbek tilining lugʻat tarkibi uning tarixiy rivoj topishi, millatimiz madaniyati va dunyoqarashi bilan uzviy bogʻliqdir. Lugʻat tarkibi tilda mavjud boʻlgan hamma leksemalarning maʼnosi, ularning shakllanishi va qoʻllanilishi bilan tashkil topgan.

Asosiy qism.

Har qanday tilning lugʻat tarkibi turli zamonlarda oʻzgartirishlar kiritilib, boyib boradi. Bu jarayonda neologizmlar – yaʼni yangi soʻz va atamalar muhim oʻrin egallaydi. Neologizmlar, asosan, ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy dunyodagi oʻzgarishlar natijasida paydo boʻladi va jamiyat ehtiyojlariga qarab tilga singib boradi. Oʻzbek tili ham jahonning koʻplab tillari singari doimiy rivojlanishda boʻlib, uning lugʻat tarkibi yildan yilga boyib bormoqda. Ayniqsa, XXI asrda globallashuv jarayonining jadallashishi, xalqaro muloqotning kuchayishi, innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida tilimizga koʻplab yangi termin va iboralar kirib kelmoqda. Kompyuter texnologiyalari, internet, marketing, moliya va taʼlim sohalaridagi global oʻzgarishlar natijasida “onlayn”, “oflayn”, “startup”, “freelancer”, “brending” kabi soʻzlar kundalik soʻzlashuvimizga singib bormoqda. Shu bilan bir qatorda, milliy oʻziga xoslikni saqlab qolish maqsadida ayrim yangi soʻzlar oʻzbek tiliga moslashtirilmoqda yoki milliy ekvivalentlari yaratilmoqda.

Neologizm (yunoncha neo – yangi, logos – soʻz) – bu muayyan til lugʻat tarkibiga yangi kirib kelgan yoki yaqin fursatda shakllangan soʻz, ibora yoki atamalardir. Ular odatda yangi ixtiro, hodisa, tushuncha yoki ehtiyoj tufayli paydo boʻladi. Neologizmlar tabiiy ravishda har bir tilning rivojlanish jarayonida paydo boʻladi va lugʻat tarkibining doimiy yangilanib borishini taʼminlaydi.

Lugʻatshunoslik nuqtayi nazaridan neologizmlar uch asosiy guruhga boʻlinadi:

1. Yangi yaratilgan soʻzlar – muayyan ehtiyojdan kelib chiqqan holda, avval mavjud boʻlmagan va tilchilar yoki jamiyat tomonidan shakllantirilgan yangi soʻzlar. Misol uchun,

“raqamlashtirish” (digitization), “sun’iy intellekt” (artificial intelligence), “kiberxavfsizlik” (cybersecurity).

2. O‘zlashma so‘zlar – boshqa tillardan kirib kelgan va ma’lum vaqt davomida iste’molga aylangan so‘zlar. Masalan, ingliz tilidan kirgan “marketing”, “startap”, “onlayn”, “brending”, “freelancer” kabi atamalar O‘zbek tilida keng qo‘llanilmoqda

3. Ma’noviy neologizmlar – mavjud so‘zlarning yangi ma’noga ega bo‘lishi yoki termin sifatida ishlatilishi. Masalan, ilgari faqat jismoniy ko‘rinishdagi “tarmoq” so‘zi hozirda internet tarmog‘i yoki ijtimoiy tarmoqlarni anglatishda ishlatilmoqda. Neologizmlarning tilga singib borish jarayoni ularning insonlar orasida qanday qabul qilinishiga bog‘liq. Ba’zi neologizmlar tezda iste’molga kirib keladi va keng qo‘llaniladi, boshqalari esa davr o‘tishi bilan eskiradi yoki boshqa so‘z bilan almashtiriladi.

O‘zbek tilining lug‘at tarkibi so‘nggi o‘n yilliklarda sezilarli holatga o‘zgardi. Globallashuv jarayoni, xalqaro ilmiy va iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi oqibat tilimizga ko‘plab yangi so‘zlar kirib kelmoqda. Ayniqsa, quyidagi sohalarda neologizmlarning paydo bo‘lishi kuzatilmoqda:

Texnologiya va axborot kommunikatsiyalari: “sun’iy intellekt”, “blokcheyn”, “kriptoalyuta”, “big data” kabi terminlar ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi bilan bog‘liq holda tilimizda o‘z o‘rnini topdi. Iqtisodiyot va biznes: “brend”, “startup”, “frilans”, “investor”, “marketing kabi atamalar biznes muhitining global xarakterga ega bo‘lishi bilan bog‘liq holda keng qo‘llanilmoqda.

Ijtimoiy va madaniy hayot: “blogger”, “vlogger”, “influencer”, “streamer” kabi yangi atamalar ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida paydo bo‘ldi.

Ekologiya va fan: “barqaror rivojlanish”, “yashil energiya”, “bioxilma-xillik” kabi tushunchalar ekologik vaziyatlar va global isish masalalariga e’tibor oshgani tufayli iste’molga kirdi. Neologizmlarning davlat tomonidan qabul qilinishi turli omillarga bog‘liq. Ayrim so‘zlar tezlikda tilga singib ketadi, ba’zilari esa uzoq vaqt davomida moslashuv jarayonidan o‘tadi. Masalan, “onlayn” va “oflayn” so‘zlari hozirgi kunda barcha yosh toifalari tomonidan bimalol ishlatiladi, ammo “raqamli transformatsiya” kabi ilmiy terminologiya hanuz keng jamoatchilik uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Tilshunoslar va mutaxassislar neologizmlarni milliy tilda muqobil atamalar bilan

almashtirishga harakat qilishmoqda. Masalan:

1.ALGORITM, algoritm [lot. Algorithmi — X asrda istiqomad qilgan buyuk o‘zbek matematigi Al-Xorazmiyning nomidan] Ma’lum bir turga oid masalalarni yechishda qo‘llaniladigan amallarning muayyan tartibda bajarilishi haqidagi aniq qoida (dastur). Algoritm esa muayyan ketma-ket bajariladigan jarayonlar majmuasi bo‘lib, nazariy va amaliy masalalarni yechishda ishlatiladi.

2.AVTOMAT [yun. automatos — o‘zi harakatlanuvchi] 1 Muayyan jarayonlar bo‘yicha belgilangan ishni ichki mexanizmi yordamida insonning bevosita ishtirokisiz o‘zi bajaradigan apparat, mashina, asbob. Tokarlik avtomati. Suv sotadigan avtomat. 2 Tezotar avtomatik qurol. Bular [piyoda askarlar] hammasi ham miltiq va avtomatlarni tayyor tutgan holda ro‘yi-rost bostirib kelmoqda edi. A. Qahhor, Oltin yulduz.

3.AVTOMAT-SPRAVOChNIK Avtomat usulida ishlaydigan va biror soha yuzasidan qisqacha tushuncha beradigan qurilma. Toshkent vokzalining kutish zallarida maxsus avtomatspravochnik qurilmalar o‘rnatilgan. "Fan va turmush"

4.ASSISTENTLIK Assistent ishi, lavozim». Assistentlik qilmoq.

5.ASSORTIMENT [fr. assortiment - terma, yig‘ma, to‘plam, saralangan] Tovarlar-ning turli xillari, nomlari va navlariga ko‘ra to‘plami. Korxonani rekonstruktsiya qilish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimentini kengaytirish bo‘yicha dadil qadam tashlandi.

6.AUDIT [lot. auditis — eshitish, tinglash] Auditorlik vakolati bo‘lgan shaxslar (auditorlik firmalari) tomonidan xo‘jalik sub’ektlari moliyaviy hisobotining eks-pertizasi va taxdili; taftish.

7.AUDITORIYA \lot. auditorium — tinglash joyi! 1 Mashg‘ulot, ma’ruza (doklad) va sh. k. o‘tkaziladigan xona, bo‘lma. Auditoriyada olingan bilim bilan cheklanmaslik kerak, albatta. 2 Mashg‘ulot, ma’ruza va sh. k.ni tinglovchilar, shuningdek, radiotinglovchilar va teletomoshabinlar.

Neologizm atamasiga olimlar xilma-xil ta’rif berishgan. R. Majidova, I. Yo‘ldoshev, O‘. Sharipov o‘zlarining “Tilshunoslik nazariyasi asoslari” darsligida quyidagicha ta’rif beradi:

“Neologizm – yangi narsa, yangi tushunchalarni ifodalash uchun hosil qilingan, hali odatdagi lug‘aviy birlikka aylanib ketmagan so‘z yoki iboralardir.” H. Jamolxonovning

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida quyidagicha ta’riflangan:

“Leksik neologizmlar tilda yangi paydo bo‘lgan va yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotmagan so‘zlar: internet, marketing, litsenziya va b. “

Yana shu kabi tilshunos olimlar o‘z ilmiy izlanishlarida neologizmlarni shunday ta’riflaydi: “ Yangi leksemalar – tilda endi paydo bo‘lgan va yangilik bo‘yog‘i sezilib turgan so‘z: lizing, audit, market, test, internet, kabi. Ular fanda neologism deb ham yuritiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilining lug‘at tarkibi uning boy madaniy merosi va tarixiy taraqqiyotining muhim qismi hisoblanadi. Lug‘at tarkibini o‘rganish tilning rivojlanishini chuqur anglash va uni samarali qo‘llash imkonini beradi. Tilshunoslikda lug‘at tarkibini muntazam tahlil qilish va yangilab borish tilni asrash va rivojlantirishda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amalit tilshunoslik: ma’ruza matni / R. U. Majidova, G. I. Narmurodova.: Toshkent – 2024: -180 - 181-sahifa
2. Tilshunoslik asoslari: I. Yo‘ldoshev, S. Muhamedova, O. Sharipov, R. majidova. Toshkent –2013. – 189-190-sahifa
3. Hozirgi o‘zbek tili: Baxtiyor Mengliyev. “Excellent Publication” – Toshkent. 2020 – 182
4. Hozirgi o‘zbek adabiy tili: H. jamolxonov. Toshkent – “Talqin”. 2005. – 204-210-sahifalar.